

## TOKDOSHLAR OILASINING ASOSIY TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Ziyoiddinova Salomatxon Shavkatbek qizi

ADPI Biologiya yo'nalishi talabasi

Tojiboyev Murodali Umaraliyevich

ADPI Biologiya yo'nalishi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165195>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda Tokdoshlar ( Vitaceae ) oilasining asosiy turlari, biologik xususiyatlari va iqtisodiy ahamiyati keltirilgan.

**Abstract:** This thesis presents the main species, biological characteristics, and economic importance of the Vitaceae family.

**Kalit so'zlar:** Tokdoshlar, uzumchilik, rezavor, mayiz, vino, liana, Kishmish, subtropik, tropik.

**Keywords:** Vines, viticulture, berries, raisins, wine, vine, Kishmish, subtropics, tropics.

Tokdoshlar (*Vitaceae*) — ikki urug'pallali o'simliklar oilasi. Daraxtsimon, ilashuvchi lianalar. Barglari oddiy, panjasimon murakkab, navbatlashib joylashgan, yonbargchali. Novdasida poyaning o'zgarishidan hosil bo'lgan gajaklar bor. Tupgullari kichik, ro'vak. Gullari ikki jinsli yoki bir jinsli, mayda, ko'kimtir. Mevasi rezavor yoki juda quruq. Ko'pincha subtropik va tropik mamlakatlarda o'sadi. Muhim iqtisodiy ahamiyatga ega yirik turkumlaridan biri tok (uzum) hisoblanadi.

Toknamolar qabilasi ikkita oilani birlashtiradi. Tokdoshlar (*Vitaceae*) oilasi bu oila 12 ta turkumga mansub 700 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda 2ta turkumga mansub ikki turi òsadi. O'zbekistonda keng tarqalgan vakili tok (*Vitis vinifera*). Gulqo'rg'onsiz ikki jinsli mevasi rezavor. Mevasi iste'mol qilinadi. O'zbekistonda eng keng tarqalgan tok vakili bu madaniy tokdir. Uning baquvvat ildizi 7 m va undan ortiq chuqurlikkacha boradi. Tok tanasi — liana. Uning ko'p yillik novdalari (zang va madang) turli yo'g'onlikda bo'ladi. Bir yillik novdalari uzun (3–5 m) va ingichka bo'lib, bo'g'imida barg, barg qo'ltig'ida kurtaklar rivojlanadi. Novdaning pastki, asosan 3—5 bo'g'imlarida gul to'plami, ustkilarida gajaklar (bargning qaramaqarshi tomonida) paydo bo'ladi. Barglari yaxlit, panjasimon, asosan, 3 va 5 bo'lakli, navbat bilan joylashgan. Sho'ralari shokila yoki ro'vaksimon. Gullari mayda, ko'kimtirsarg'ish, madaniy turlariniki, asosan, ikki jinsli, ayrimlariniki bir jinsli. Hasharotlar, shamol yordamida va o'z o'zidan changlanadi. G'ujumi (uzumi) rezavor, 1—4 urug'li, etli, sersuv yoki kamsuv. Urug'siz navlari (kishmishlar) ham bor. G'ujumlari turli shakl va rangda, shingilga to'plangan.

O'zbekistonda yetishtiriladigan navlari: O'zbekiston muskati, G'alaba, Oktyabr, VIR1, Xishrov kishmishi, Samarqand kishmishi, Jo'rauzum, Tarnoye, Rizamat, Aleatiko, Aleksandriya muskati, Aligote, Andijon qora uzumi, Anzob, Bastardo, Bihishti, Buvaki, Charos, Chillaki, Daroyi, Dili kabutar, Echkiemar, Go'zal qora, Hasayni, Husayni, Kishmish, Marmar kishmish, Murvedr, Muskat, Narekatsi, Obaki, Oq kishmish, Parkent, Pobeda, Qorajanjal, Rizamat, Saperavi, Shuturangur, Suramush, Sohobi, Soyaki, Sultoniy, Tuyatish, Venger muskati, Xaliliy, Xoja ahroriy, Xurmoy, Xusayni, Nimrang, Kattaqo'rg'on, Qirraburun, Toyfi, Tuyatishi, Chillaki, Ozbekiston muskati, Xo'ja Axrori.

Uzumchilik — bog'dorchilikning tok o'stirish va uzum yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Uzumchilik aholini yangi uzum, mayiz bilan, vinochilik, konserva

sanoatlarini xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Uzumchilikning 4 ta asosiy yo'nalishi: xo'raki uzum yetishtirish, mayiz quritish, texnik maqsadlarda uzum yetishtirish (konserva mahsulotlari, sharbatlar, konsentratlar tayyorlash), vinochilik (xom-ashyo tayyorlash) sohalari mavjud.

Demak, Tokdoshlar oilasi (Vitaceae) o'zining biologik xilma-xilligi va iqtisodiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Oila tarkibiga kiruvchi o'simliklar asosan tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan bo'lib, uzum kabi qimmatbaho mevali ekinlar bilan mashhurdir. Tokdoshlar oilasining vakillari oziq-ovqat sanoatida, xususan, vinochilik va sharbat ishlab chiqarishda katta rol o'ynaydi. Mevalari yuqori oziqaviy qiymatga ega bo'lib, vitaminlar va minerallar manbai hisoblanadi. Shuningdek, dekorativ va ekologik jihatdan ham muhimdir, chunki ular yashil landshaftni bezashda va tuproq eroziyasini oldini olishda qo'llaniladi. Ushbu oila vakillarining ko'plab turlari qishloq xo'jaligida, dorivor o'simlik sifatida va atrof-muhitni muhofaza qilishda keng foydalaniladi. Shuning uchun tokdoshlar oilasini yanada chuqurroq o'rganish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. O'.Pratov, Q.Jumayev - Yuksak o'simliklar sistematikasi 2003.
2. O'.Pratov - Botanika. Morfologiya, Anatomiya, Sistematika, Geobotanika 2010.
3. Tokdoshlar. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tokdoshlar>
4. Uzumchilik. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Uzumchilik>
5. Uzum. <https://uzbekfoodtour.uz/uz/fruit/show/13>
6. O'zbekiston hududida yetishtiriladigan Tokdoshlar oilasi vakillari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7976583>